



QASHQADARYO VILOYATI CHIROQCHI TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 15-dekabr

310-4-66-Q/25

Chiroqchi tuman hokimligi

Chiroqchi tumani hokimligi zaxira jamg'armasi mablag'larini yo'naltirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 6- va 25-moddalari hamda "Byudjet kodeksi" ning 125-moddasiga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Chiroqchi tumani hokimligi zaxira jamg'armasi mablag'lari hisobidan tuman obodonlashtirish boshqarmasining tegishli hisob raqamiga, yangi yil tadbirlarini o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar uchun 100,0 million so'm mablag' ajratilsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (J.Jo'rayev)ga ajratilayotgan mablag'lar doirasida tuman obodonlashtirish boshqarmasining xarajatlar smetasiga tegishli o'zgartirishlar kirit sin, ajratilayotgan mablag'larning maqsadli ishlatilishini nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

3. Ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanishini ta'minlash obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i B. Abdullayevga topshirilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari v.v.b. B.Yoriyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi v.v.b.



Zakirov.A.I